

O‘zbekiston
Metama'lumot
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari indeksi

Ishlab chiqilgan sana: 19.09.2019

Oxirgi yangilangan sana: 30.03.2022

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikaning tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va

muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiyligini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuvini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini (IChNI) shakllantirish bo‘yicha Markaziy apparatda 5 nafar xodim, hududiy shahar va tuman statistika bo‘limlarida 1 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining narx statistikasi bo‘limlarida 1-2 nafar xodimlar shug‘ullanadi

Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xodimlar soni yetarli darajada

Barcha hodimlar oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, har 2 yilda kamida 1 marta Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti o‘quv kurslarida o‘z malakalarini oshiradilar.

Har bir ish o‘rni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta‘minlangan.

Dasturiy ta‘minotlar bevosita Davlat statistika qo‘mitasining o‘zida ishlab chiqilgan bo‘lib, zarurat tug‘ilganda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarni bajarishda dasturiy ta‘minotni yangilash va unga qo‘shimchalar kiritish imkoni beradi.

Statistika dasturida belgilangan Ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasiga oid vazifalarni amalga oshirishda ajratilayotgan moddiy resurslar yetarli darajada.

1. Beg‘arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika

qo‘mitasi o‘z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o‘zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko‘rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o‘zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me‘yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me‘yorlari bo‘yicha ko‘rsatmalar

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo‘mitasi xodimi individual ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (IChNI) – sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi inflyatsion jarayonlarni aks ettiruvchi asosiy indikatorlardan biri bo‘lib, ma‘lum vaqt oralig‘ida o‘zgarmas ishlab chiqarish tuzilmasi bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari o‘zgarishini tavsiflaydi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi hisob-kitoblari XVJ ekspertlari tavsiyalari hamda “Ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: nazariya va amaliyot” tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 19- noyabrdagi 44- son Qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indeksi hisob-kitoblari bo‘yicha uslubiy nizom asosida shakllantiriladi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma‘lumotlarning statistik qamrovi

Sanoat mahsulotlari narxlari o‘zgarishini kuzatish, aniq bir maqsad bo‘yicha tanlab olish asosida shakllantiriladigan tayanch sanoat korxonalarining tanlanma tarmog‘i bo‘yicha amalga oshiriladi. IChNIning shakllantirishda NACE rev.2. asosida ishlab chiqilgan Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq (IFUT-2) asosiy iqtisodiy faoliyat turlari B - “Tog‘-kon

sanoati va ochiq konlarni ishlash”, C – “Ishlab chiqaradigan sanoat”, D – “Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash”, E – “Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish” seksiyalariga taalluqli bo‘lgan korxonalar kuzatuvga qamrab olinadi.

Tayanch korxonalarini tanlashda, ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatiga asoslangan kuzatuvning tanlanma usulidan foydalaniladi, ya’ni, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining ishlab chiqarish sanoatining umumiy hajmidagi yuqori ulushi ustuvor mezonlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilarni tayanch korxonalar ro‘yxatiga qo‘shish uchun tanlab olishda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- har bir faoliyat turi uchun aynan xos bo‘lgan korxonalarini (texnologik jarayoniga, foydalaniladigan xom-ashyo turiga ko‘ra va h.k);

- tanlanmaga respublika darajasida indeksni hisoblash uchun zarur bo‘lgan guruhlar, sinflar va kichik sinflar ro‘yxatiga kiritilgan mahsulotlar turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini kiritish.

Tanlanmaning optimal hajmiga statistika kuzatuv uchun belgilangan asosiy mahsulot guruhlarini imkon qadar maksimal darajada qamrab oladigan tayanch korxonalarini tanlash orqali erishiladi.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Sanoat ishlab chiqaruvchilar narxlar indeksiga zaxiralardagi o‘zgarishlar va o‘z iste’moli uchun tovarlar ishlab chiqarish, o‘z kapitalini to‘plash uchun bozor tovarlarini ishlab chiqarish, bozor tovarlarini noqonuniy ishlab chiqarish, o‘z yakuniy iste’moli uchun muayyan xizmatlarni ishlab chiqarish, o‘z jamg‘armasini to‘plash va noqonuniy bozor xizmatlarini sotish bo‘yicha xizmatlar kiritilmaydi.

Narxlar kuzatuv qamroviga yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini kiritilmaydi, shu bilan birga, salmoq vaznlarni shakllantirishda foydalaniladigan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymat ko‘rinishidagi hajmi yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Narxlar ro‘yxatiga olishda, narxlarning real dinamikasini aks ettira olmaydigan, juda past yoki o‘ta yuqori darajadagi narxlarga ega bo‘lgan mahsulotlarning sotilishida “bir martalik tasodifiy” iste’molchilarning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Narxlarning keskin o‘zgarishiga sababchi bo‘lgan iste’molchilarni almashtirish holatlari, ro‘yxatga olingan mahsulotlarning hisobot davridagi va o‘tgan davrdagi narxlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslashga imkon bermaydigan o‘zgarishlar sifatida qaralishi kerak.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

ICHNI da noqonuniy tarzda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2016- yilga qadar IChNini shakllantirishda milliy tasniflagichdan foydalanilgan bo'lib, 2016- yilning yanvar oyidan e'tiboran O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT, 2-tahrir) muvofiq IChNI faoliyat turlari bo'yicha hisoblanmoqda.

Mahsulotlarni tasniflashda CPA2008-Statistical classification of products by activity in the European Economic Community (Yevropa iqtisodiy hamjamiyatidagi faoliyat bo'yicha mahsulotlarning statistik tasniflagichi) asosida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik klassifikatoridan foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Oqimlarni ro'yxatga olishda foydalaniladigan baxolash qoidalari umumiy hisobda MHT-2008 talablariga mos keladi. Mahsulotni (IChNI salmoq vaznlari uchun) va mahsulot narxini aniqlashda foydalaniladigan baholash qoidasi ishlab chiqaruvchilar narxlariga asoslanadi. QQS, aksiz va mahsulot tannarxiga kiritilgan qo'shimcha soliqlar (ustama savdo narxi (yoki chegirma) va ishlab chiqaruvchining mahsulotni xaridorga yetkazib berishi bilan bog'liq transport xarajatlari, shuningdek, tovarlarni qadoqlash, saqlash, transport vositalariga yuklash bilan bog'liq bo'lgan va shu kabi boshqa xarajatlar) mahsulot narxiga qo'shilmaydi. Oziq-ovqat subsidiyalari hisobga olinadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Ishlab chiqarilgan davrdagi tayyor mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar narxlari hisobga olinadi. Narxlarni ro'yxatga olish tayanch korxonalar tomonidan yuklab jo'natilgan mahsulotlar hujjatlaridagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Agar ro'yxatga olish davrida mahsulot yuklab jo'natilmagan bo'lsa, u holda hisobot shaklida, hisobot oyi davomida ro'yxatga olish kuniga yaqin kunlarda yuklab jo'natilgan yoki yuklab jo'natilishi kutilayotgan mahsulot narxlari ko'rsatiladi.

Oylik davriylikda kuzatilayotgan mahsulotlar turlari narxlari haqidagi ma'lumotlar, faqatgina yirik tayanch korxonalar tomonidan statistika hisoboti shaklida belgilangan muddatlarda, taqdim etiladi.

Choraklik davriylikda narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalar tomonidan statistik kuzatuv uchun maxsus ishlab chiqilgan savolnomada belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Shu bilan birga, ular tomonidan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar chorakning har bir oyi bo'yicha diskret shaklida taqdim etiladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Alohida turdagi mahsulotlar va faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini hisoblash tartibi "faoliyatning aniq turlari" tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi (tegishli faoliyat turiga mansub mahsulotlar bo'yicha).

3. Aniqlik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Ma'lumotlarni to'plash uchun har oy elektron ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish dasturlarini batafsil tavsiflash uchun ma'lumotlar manbalari tahlil qilinadi.

Korxonalarining tanlanma statistik kuzatuvining asosi bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning Yagona Davlat Registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 274- son qaroriga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan, doimiy yangilanib turadigan, kompleks Korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registri xizmat qiladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Birlamchi ma'lumotlar hisobga olish paytidagi manba bilan moslashtiriladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari tanlanma kuzatuvini birlamchi ma'lumotlarini yig'ishning davriyligi va muddati ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish tizimida nazarda tutilgan talablarga muvofiq IChNI to'g'risidagi chiquvchi ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Tayanch korxonalar (respondentlar) hisobot taqdim etishning belgilangan eng oxirgi muddati to'g'risida xabardor qilingan. Yangi qo'shilgan korxonalar hisobot taqdim etish muddatlari to'g'risida yozma ravishda ogohlantiriladilar.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Doimiy ravishda nisbiy narxlar va ularning ekstremal kattaliklari to'g'risidagi ma'lumotlar tekshirib boriladi. O'xshash yoki bir xil mahsulot turini ishlab chiqaruvchi korxonalarining narxlari taqqoslanadi va tahlil qilinadi. Ekstremal ko'rsatkichlar aniqlangan hollarda

ma'lumotlarga bevosita korxonalar mutaxassislari bilan birgalikda aniqlik kiritiladi. Narxlar tartibga solish bilan shug'ullanuvchi davlat organlari bilan bozorda ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar va boshqa tartibga solinadigan narxlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining narxlariga aniqlik kiritish bo'yicha yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

3.3 Statistika usullari

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari

Ma'lumotlarni kompilyatsiya qilish protseduralari tegishli dasturiy ta'minot to'plami va mantiqiy nazoratdan foydalanish orqali kodlash xatolarini minimallashtiradi.

Kuzatilayotgan tovar (xizmat)lar turlarining narxlar bo'yicha ma'lumotlar to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- birinchi bosqichda, oylik davriylikda kuzatilayotgan mahsulotlar turlari narxlar haqidagi ma'lumotlar, faqatgina yirik tayanch korxonalar tomonidan statistika hisoboti shaklida belgilangan muddatlarda, taqdim etiladi.

- ikkinchi bosqichda, choraklik davriylikda narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalar tomonidan statistika kuzatuv uchun maxsus ishlab chiqilgan savolnomada belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Shu bilan birga, ular tomonidan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar chorakning har bir oyi bo'yicha diskret shaklida taqdim etiladi.

Yil boshida tanlanmaga yangidan qo'shilgan tovarlar (xizmatlar) uchun o'tgan yilning dekabr oyidagi tayanch narx qayd etilishi lozim. O'tgan yilning dekabr oyidagi narxni olish imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, o'tgan yilning dekabr oyiga yaqin bo'lgan oyidagi narx tayanch narx sifatida foydalanilishi mumkin. Ba'zi hollarda (masalan, mavsumiy mahsulotlar yoki korxonalar yangi yil oldi chegirmalarning qo'llanilishi) tayanch narx sifatida o'tgan yilning IV choragidagi o'rtacha narxdan foydalanish mumkin. Uchrashi mumkin bo'lgan barcha hollarda, tayanch narx qiymati to'g'risidagi qaror tayanch korxonalar mutaxassislari bilan birgalikda qabul qilinishi shart.

Ayrim hollarda, O'zbekistondagi alohida turdagi ishlab chiqarish faoliyatida narxlar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari tovar yoki xizmat narxini to'g'ridan-to'g'ri qayd qilishga imkon bermaydi. Bu, xizmat narxini qayd etish lozim bo'lib, lekin uni yetkazib berilgan mahsulot umumiy qiymatidan farqli ravishda ajratib olish imkoni bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ushbu holat, masalan, gazni yetkazib berish xizmatlariga xos bo'lib, bu yerda faqat gazni yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan sotib olingan narxi va uni yakuniy iste'molchiga sotilgan narxi ma'lum bo'ladi. Ushbu holatda xizmat qiymati quyidagi yondashuvlarning biridan foydalangan holda bilvosita aniqlanishi mumkin:

- agar tayanch korxonada hisobi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, "xarajat" usuli asosida.

- mahsulotning sotish narxini tovar qiymatiga va xizmat qiymatiga teng nisbatda (proporsional) taqsimlash asosida.

Aniq usul tanlovi tayanch korxonalar mutaxassislari bilan birgalikda mavjud axborot-resurs bazasini tahlil qilish asosida yil boshida amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik mavjud bo'lmagan yoki mavsumiy mahsulotlar uchun XVJ texnik missiyalari ekspertlarining tavsiyalari va Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi: nazariya va amaliyot (XVF) qo'llanmasida bayon etilgan qoidalarga asoslanib, shartli narxlarni belgilash usullari qo'llaniladi.

Sifat jihatidan narxlarni to'g'rilashda quyidagi ikki toifadagi usullardan foydalaniladi:

- noaniq yoki bilvosita ("implitsit") to'g'rilash;
- aniq yoki bevosita ("eksplitsit") to'g'rilash.

Shartli narxlarni hisoblash usullarining har birini qo'llash, shuningdek, mahsulot sifatini o'zgartirish uchun tuzatishlar "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da batafsil tavsiflangan <https://lib.stat.uz/uz/features/narxlar>.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

O'lchash tizimlarini shakllantirishda sanoat korxonalarining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati to'g'risidagi yillik statistik hisobotlari ma'lumotlari asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning qiymat hajmlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlarni ishlab chiqish davrini hisobga olgan holda tayanch davrning joriy davrdan kechikishi 2 yilni tashkil etadi. Narxlar uchun tayanch yil bo'lib o'tgan yilning dekabr oyi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishining o'rtacha yillik tuzilmasidan dekabr narxlarida o'xshash tuzilmaga bog'lash (mustahkamlik) va o'tish xalqaro amaliyotda qabul qilingan metodologiyaga mos keladigan tuzatish koeffitsientini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Salmoq vaznlar tuzilmasi har yili sanoat statistikasi asosida yangilanadi.

ICHNI ni baholash uchun modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi bo'yicha hisoblangan o'tgan oyga nisbatan qisqa muddatli narxlar o'zgarishi va uzoq muddatli narxlarning o'zgarishi (o'tgan yilning dekabriga, o'tgan yilning mos oyiga, yil boshidan tegishli davrga) qo'llaniladi. Bundan tashqari, narx indekslari har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun o'tgan chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan, joriy yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan, o'tgan yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan, shuningdek, joriy oy uchun joriy va o'tgan yillarning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan diskret indekslari ham hisoblanadi.

Birlamchi ma'lumotlarni to'plashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, narxlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, o'z navbatida ikkita ma'lumotlar to'plamini ham nazarda tutadi. Dastlabki bosqichda, chorakning birinchi va ikkinchi oylarida, yirik va kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlarni o'z ichiga olgan holda shakllantirilgan tanlanma va salmoq vaznlari tuzilmasiga muvofiq, ICHNI ni hisoblash uchun dasturiy ma'lumotlar bazasiga statistik kuzatuv shaklini qabul qilish jarayonida avtomatik ravishda, faqatgina ro'yxat bo'yicha yirik tayanch korxonlarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar kelib tushadi. So'ng, faqatgina yirik tayanch korxonlari asosida individual va jamlanma (agregatlashgan) narxlar indeksi hisob-kitob qilinadi. Ikkinchi bosqichida kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalar uchun shartli narxlar indeksini hisoblash amalga oshiriladi. Amallar ketma-ketligi (algoritm) yirik tayanch korxonalaridan olingan narxlar indeksini kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonalariga ekstrapolyatsiya

qilishni nazarda tutadi. Natijada, yirik tayanch korxonlar bo'yicha amaldagi va kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlar bo'yicha "shartli hisoblangan" qisqa muddatli narxlar indeksini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Chorakning uchinchi oyida, statistika organlarida yirik tayanch korxonlari bilan birgalikda kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlari bo'yicha ham amaldagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalari shakllantirilganda, yanvar oyidan fevral oyigacha narxlar indeksining retrospektiv hisob-kitobi amalga oshiriladi va mart oyi uchun amaldagi narxlar asosida narx indeklari shakllantiriladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Narxlari tartibga solinadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun IChNI shakllantirish narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar ma'muriy manbalardan (davlat nazorat qiluvchi organlar) olingan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Asosiy oraliq ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan tafovutlar tahlil qilinadi va ma'lumotlar nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun tuzatiladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, avval e'lon qilingan ma'lumotlar keyingi nashrlarda o'zgartiriladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Har chorakning dastlabki ikki oyi uchun IChNI "Yirik korxonalar bo'yicha amaldagi narxlar va kichik tadbirkorlik korxonlari bo'yicha shartli hisob-kitoblarni hisobga olgan holda dastlabki ma'lumotlar" qaydi bilan, qolgan oylarda "Yirik va kichik tadbirkorlik korxonlari bo'yicha amaldagi narxlarni hisobga olgan holda qayta hisoblangan ma'lumotlar" qaydi bilan nashr etiladi. IChNI hisoblash uchun yangilangan salmoq vaznlar tizimini shakllantirish har yili amalga oshiriladi va yanvar oyidan hisoblash ishlarida foydalaniladi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Ma'lumotlar tarqatishning umumiy tizimi talablariga mos ravishda IChNI hisoblash har oyda amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

IChNI oylik ma'lumotlarini tarqatish Statistika dasturi asosida MTUT tavsiyalarida keltirilgan muddatlar va ma'lumotlar chiqarish taqvimiga muvofiq keyingi oyning 6 kunida amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi respublika sanoat faoliyati uchun bir butun sifatida, shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari va mahsulotlar bo'yicha shakllantiriladi. Statistik qatorlar ichki taqqoslanuvchanlik bilan tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Bosqichma-bosqich oylik IChNI 1994- yildan shakllantirilgan.
2016 yilgacha IChNI milliy tasniflagich tarkibida, 2016 yildan - iqtisodiy faoliyat turlari tarkibida (IFUT Iqtisodiy faoliyat turlari milliy klassifikatoriga ko'ra, NACE rev.2 asosidagi rev. 2) shakllantirilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Dastlabki va qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni e'lon qilish Statistika dasturda nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Har chorakning dastlabki ikki oyi uchun ICHNI “Yirik korxonalar bo‘yicha amaldagi narxlar va kichik tadbirkorlik korxonalar bo‘yicha shartli hisob-kitoblarni hisobga olgan holda dastlabki ma’lumotlar” qaydi bilan, qolgan oylarda “Yirik va kichik tadbirkorlik korxonalar bo‘yicha amaldagi narxlarni hisobga olgan holda qayta hisoblangan ma’lumotlar” qaydi bilan nashr etiladi.

4.3.3 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish

ICHNI bo‘yicha ilgari e’lon qilingan ma’lumotlarga aniqlik kiritilgan taqdirda, qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar keyingi nashrlarda taqdim etiladi. Qayta ko‘rib chiqilgan (yakuniy) ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi nashrlari orqali tarqatiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma’lumotlar

5.1.1 Statistik ma’lumotlarni taqdim etish

ICHNI ma’lumotlari foydalanuvchilarga "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlar indeksi" statistik byulleteni, "O‘zbekiston statistik yilnomasi", "O‘zbekiston sanoati", "O‘zbekistonda qurilish" va hokazo nashrlar orqali taqdim etiladi. Shuningdek, Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti <http://www.stat.uz>ning “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limida (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/prices-and-indexes-2>) va OPEN DATA ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilib boriladi.

Statistik to‘plamlarda ma’lumotlar jadval va grafik ko‘rinishda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma’lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Chop etilmaydi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Statistik byulleten “Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlar indeksi”.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari bo‘yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-saytining:

“Ochiq ma’lumotlar” bo‘limida <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/prices-and-indexes-2> “Nashrlar” bo‘limida hisobot va broshyuralar ko‘rinishida, shuningdek foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlariga ko‘ra elektron shaklda.

5.1.3. Ma’lumotlarni e’lon qilish jadvali

Ma’lumotlarni e’lon qilish Statistik dasturda aks ettirilgan statistik nashrlarni (ma’lumotlarni) chop etish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-saytida ma’lumotlarni chop etish jadvali joylashtirilgan <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/rasmiy-statistika-kalendari>.

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e’lon qilish

Sanoat ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksleri quyidagi statistik to‘plamlarda keltirilgan:

- O‘zbekistonda narxlar (stat.uz) – har yili iyul oyida
- O‘zbekistonda sanoat (stat.uz) – har yili sentabr oyida
- O‘zbekistonda qurilish (stat.uz) – har yili sentabr oyida (bo‘lim).

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi” Nizomi, Statistik ma’lumotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish reglamenti va boshqa normativ hujjatlar asosida foydalanuvchilar so‘roviga asosan statistik ma’lumotlar o‘rnatilgan tartib asosida taqdim etiladi. Statistik ma’lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlariga, shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga asosan statistik to‘plamlar, byulletenlar, tezkor ma’lumotlar bosma nashr yoki elektron shaklda ham amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Ushbu veb-sahifada Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomlar mavjud (Qo'mitaning 2021- yil 19- noyabrdagi 44- son qarori bilan tasdiqlangan) <https://lib.stat.uz/uz/features/narxlar>

Uslubiy qoidalarda tushuncha, qo'llaniladigan tasniflar, statistik qamrov, ma'lumotlar manbalari, ko'rsatkichni shakllantirishda qo'llaniladigan statistik usullar va tartiblar haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasining rasmiy nashrlarida statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan muloqot qilish uchun manzillar (pochta, telefon, faks, elektron pochta va boshqalar) ko'rsatilgan.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistik kuzatuvlarning statistik vositalarini (shakllari va anketalarini) takomillashtirish. Vaqtinchalik yetishmayotgan narxlarni hisoblash mexanizmini joriy etish, sifatni o'zgartirish, kichik biznesni qo'shish hisobiga qamrovni kengaytirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Ishlab chiqaruvchilar narxlari kuzatuvida mahsulotlar nomenklaturasi ro'yxatini kengaytirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Mahsulotning sifat o'zgarishlarini to'g'irlash mexanizmini yanada takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturi asosida amalga oshiriladi.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Moliyalashtirish Statistika dasturi asosida amalga oshiriladi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.Sh.:	Umarov Muxtor To'rayevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Narxlar statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	(+998) 71-202-80-36
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	(+998) 71-202-81-53
Elektron manzil:	m.umarov@stat.uz